

KUSHON DAVLATI HUDUDIGA BUDDAVIYLIKNING KIRIB KELISHI VA TARQALISHI TARIXI

Beknazarov Sobirjon Barotboy o‘g‘li.

Xalqaro Innovatsion Universitet Tarix fani o‘qituvchisi

Sirojiddinova Sevinch.

Xalqaro Innovatsion Universitet Tarix fakulteti I kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada kushoniylar saltanati hukmronligi davrida buddaviylik dini va badiiy madaniyati o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarilishi, juda katta tarixiy-madaniy o‘lkalarning bir davlat tasarrufiga o‘tishi va buning natijasida yuzaga kelgan siyosiy barqarorlik budda dini rohiblari va targ‘ibotchilarining butun saltanat hududlarida bo‘lib, mahalliy xalq orasida uni keng targ‘ib qilishlari uchun imkoniyatlar yaratilishi haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Suvarga, Purushapur, buddaviylik, Vima Kadfiz, Kanishka I, Nandi, Shiva, Baqtriya, Oks, yunon, hind, Ayritom, Budda.

Аннотация. В статье приводятся сведения о подъеме буддийской религии и художественной культуры на новый этап развития в период правления Кушанской империи, переходе весьма крупных историко-культурных земель под юрисдикцию одного государства и наступившей в результате этого политической стабильности, что создало возможности для буддийских монахов и пропагандистов распространять буддизм по всей империи и широко распространять его среди местного населения.

Ключевые слова: Суварга, Пурушанур, Буддизм, Вима Кадфиз, Канишка I, Нанди, Шива, Бактрия, Оксус, Греческий, Индийский, Айрит, Будда.

Annotation. The article provides information about the rise of Buddhist religion and artistic culture to a new stage of development during the reign of the Kushan Empire, the transfer of very large historical and cultural lands to the jurisdiction of one state, and the resulting political stability, which created opportunities for Buddhist monks and propagandists to spread Buddhism throughout the empire and widely spread it among the local population.

Key words. Suvarga, Purushapur, Buddhism, Vima Kadphiz, Kanishka I, Nandi, Shiva, Bactria, Oxus, Greek, Indian, Ayrit, Buddha.

Kushonlar to‘liq xronologiyasining boshlang‘ich sanasini belgilashdagi ikkilanishlar sezilarli darajada – miloddan avvalgi 57-yildan milodiy 278-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. 1968-yilda Ye. V. Zeymal tomonidan bunga oid turli xil fikrlar to‘liq ko‘rib chiqilgan va u Kushon xronologiyasi masalasini hal qilish uchun aniq sanalarning o‘ttizdan ortiq variantlari taklif qilinganligini ta’kidlab o‘tgan⁹⁰.

Kushon tangalari, Parfiya, Rim hamda sosoniylar podshohlarining tangalari xazinasida, hukmronlik qilgan sanalari aniq ko‘rsatilib zarb qilingan tangalar yoki arxeologik qatlamlardagi hamkorlikda topilgan topilmalar bu borada yordam berishi mumkin.

Arxeologik-stratigrafik manbalar va tangalar stratigrafiyasi Buyuk Kushonlar tangalari⁹¹ uchun quyidagi davriy qatorlarni yaratishga imkon beradi. Uning quyi chegaralarida, milodiy I asrning ikkinchi uch yuz yilligiga Soter Megas tangalarining muomalada bo‘lish bosqichlaridan biri to‘g‘ri keladi. Kushon tangalarini muomalaga chiqarish ning yuqori chegarasi III asrning ikkinchi choragi bilan cheklangan. Ushbu qatorning o‘rtalarida Vima Kadfiz, Kanishka I va Xuvishka tangalari asosli ravishda joylashtirilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida Kushonlar podsholigi hukmronligining milodiy I asrning boshidan – milodiy III asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davri oralig‘ini belgilab beradi.

Xullas, Kanishka hukmronligi milodiy II asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Shu tariqa, X.Falk Sphujiddhvaja tomonidan yozilgan Yavanajataka ma’lumotlarini tahlil qilish asosida, Kanishka I hukmronligi milodiy 127-150-yillarni o‘z ichiga oladi, degan xulosaga kelindi⁹².

O‘rta Osiyoga kirib o‘rnashgan yuechji xalqi 5 ta xonadonga bo‘linib, har bir xonadon o‘rtasida taxt uchun kurash boshlanib ketdi. Bular Xyumi, Shaunmi, Dumi, Xise va Guyshuan (Kushon) xonadonlari bo‘lgan.

Ular o‘rtasidagi o‘zaro kurashda Guyshuan g‘olib chiqdi va Kushon podsholigining tamal toshi qo‘yildi. Kushon podsholigi deb e’lon qilingan ushbu davlat keyinchalik qudratli Kushon imperiyasiga aylandi. Kushon davlatining

⁹⁰ Zeymal. V. Ye. Kushanskaya xronologiya. M, 1968. 132-bet.

⁹¹ Rtveladze E. Coins of the Yuechi rulers of Northern Bactria // SRAA 3. 1993/94. 81-97-betlar.

⁹² Falk H. The yuga Sphujiddhvaja and the era of the Kushanas // SRAA 7. 2001. 121-136-betlar.

yuksalish davri (I-III asrlar) O‘rta Osiyoda quldorlik tuzumining eng avj olgan davri edi.

Kushonlar mintaqadagi deyarli barcha siyosiy birliklar, makonlarni va hatto qo‘shni mamlakatlarni ham bir siyosiy markaz atrofida birlashtirib, o‘zbek davlatchiligi tarixida saltanatchilik bosqichini ochgan siyosiy kuch hisoblanadilar. Ular shimolda Shosh, sharqda – Sharqiy Turkiston, g‘arbda Eron, janubda Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan ulkan hududni birlashtirishga erishganlar. Keyinchalik bu an‘ana eftaliylar, somoniylar, anushteginiylar, temuriylar, ma‘lum ma‘noda shayboniylar hukmronligi davrida ham davom etdi⁹³.

Shuningdek, Kushon podsholigi davrida Hindistonning bir qismi egallandi va shu bilan birga buddaviylik dini O‘rta Osiyoga kirib keldi va Islom dini yoyilguncha buddaviylik mavjud bo‘lgan. Binokorlik, kandakorlik, me‘morchilik, savdo va hunarmandchilik kabi sohalar Kushon davlati davrida o‘zining eng yuqori darajasida yuksaldi. Aynan shu davr me‘morchiligida budda haykallari yasash an‘anaga kirib qolgan. Buning tasdig‘ini yurtimizning turli hududlaridan topilgan buddaviylikka oid haykaltaroshlik namunalari ko‘rishimiz mumkin. Bu sohalarining yuksalishi Kushon davlatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Kushon podsholigi davrida Hindistonning bir qismi egallandi va shu bilan birga buddaviylik dini O‘rta Osiyoga kirib keldi va Islom dini yoyilguncha buddaviylik mavjud bo‘lgan. Binokorlik, kandakorlik, me‘morchilik, savdo va hunarmandchilik kabi sohalar Kushon davlati davrida o‘zining eng yuqori darajasida yuksaldi. Aynan shu davr me‘morchiligida budda haykallari yasash an‘anaga kirib qolgan. Buning tasdig‘ini yurtimizning turli hududlaridan topilgan buddaviylikka oid haykaltaroshlik namunalari ko‘rishimiz mumkin. Bu sohalarining yuksalishi Kushon davlatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi⁹⁴. Kushoniylar davrida joylardagi madaniy an‘analar ma‘lum darajada bir-biri bilan uzviylashadi va umumiy ko‘rinishga ega bo‘ladi. Ilk pallalarda kushoniy shohlar saroyida yunonlarga xos marosim namunalari qabul qilngan bo‘lsa, buyuk kushoniy shahanshohlar hukmronligi davrida saroy ahlining hayoti va ish yuritilishida mahalliy ko‘rinishlar keng tus ola boshlagan. Bu borada Vima Kadfiz va Kanishka I

⁹³ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001. 64-bet.

⁹⁴ Beknazarov S. // Turkiy xalqlar va Kushon davlatining qadimgi davlatchilik rivojida tutgan o‘rni. 2025. 4-5-betlar.

tomonidan saltanatning diniy va madaniy hayoti bilan bog‘liq olib borilgan siyosatni qayd etish mumkin. Vima Kadfiz o‘z hukmronligi davrida, asosan hindlarga tayangan va shu sababli hind madaniyati rivojiga alohida e‘tibor qaratgan. Buni Vima Kadfiz tomonidan zarb qilingan tangalar misolida ham ko‘rish mumkin. Tangalarning old tomonida muqaddas olovgo‘h yonida tik turgan shohning tasviri, ularning orqa tomonida muqaddas ho‘kiz Nandi oldida hind ma‘budlaridan biri Shivaning tasviri tushurilgan. Vaholanki, bungacha tangalarning old tomonida shohlar qiyofasi, orqa tomonida esa, yunon ma‘budlaridan birining tasvirini tushurish odat bo‘lgan⁹⁵.

Kushoniylar madaniy hayotidagi o‘ziga xos tomonlardan yana biri bu qadimgi hind madaniyatining o‘lkamizga kirib kelishi va uning o‘rnashib borishidir. Buni birgina shaxmat misolida ko‘raylik. Aslida Hindistonda paydo bo‘lgan va chaturanga nomi bilan mashhur bu o‘yin milod boshlaridayoq mintaqamiz ahli orasida tarqala boshlagan⁹⁶.

Kushoniy hukmdorlar ham butun mamlakat bo‘ylab buddaviylikning keng tarqalishiga alohida e‘tibor berishgan. Ular o‘zlari mamlakatning turli hududlarida buddaviylik ibodatxonalari, stupalar va boshqa inshootlar qulishiga homiylik qilishgan. Bu borada hukmdor Kanishka I alohida o‘rin tutgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Kanishka I buddaviylikning chin ixlosmandi va buddaviylarning 78-yildagi uchinchi katta xalqaro yig‘ilishi tashkilotchisi sifatida tilga olinadi. Mazkur yig‘ilishda buddaviylarning shimoliy yo‘nalishi ishlab chiqilgan. Bu yo‘nalish keyinchalik Xitoy, Tibet, Mo‘g‘uliston, Yaponiya va Koreyada keng tarqalgan. Saltanat poytaxti Purushapurda balandligi 30 qavatli binoga teng bo‘lgan mahobatli suvarga – budda uyining barpo etilishi ham Kanishka I nomi bilan bog‘liq. Suvarganing mahobati va uni bezashda ishlatilgan yog‘och o‘ymakorligi namunalari milodiy VII asrda Peshovarda bo‘lgan Xitoy sayyohi Syuan Szyanni hayratga solgan hamda u bu suvargani «dunyo mo‘jizalaridan biri» sifatida qayd etgan. Kushon hukmdorlari buddaviylik diniga alohida e‘tibor qaratgan bo‘lsalarda, mazkur ta’limot saltanatning rasmiy dini sifatida qabul qilinmagan. Ular zarb etgan tangalarda ham Budda tasviri uchramaydi. Hatto, Kanishka tangalarida ham Budda tasviri

⁹⁵ A. Asqarov boshchiligidagi mualliflar jamoasi. O‘zbekiston tarixi. I jild. – T: Ma’naviyat, 2023. 98-bet.

⁹⁶ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001. 71-bet.

sanoqlidir⁹⁷.

Buddaviylikning Baqtriyaga, undan esa, Oks suv yo‘li va qisman quruqlik yo‘llari orqali Marg‘iyonaga kirib kelishida Buyuk hind yo‘li asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qilgan⁹⁸. Bu haqida asosan Kampirtepa va Eski Termizdagi qazishmalarda topilgan, hind madaniyati va buddaviylik Termizning g‘arbiy tomonidagi Oks vodiysidan Marg‘iyona tarafga qarab ancha erta tarqalganligi haqida guvohlik beruvchi yangi arxeologik materiallar xabar beradi. Ular orasida Eski Termiz va Kampirtepadan topilgan terrakotalar (kuydirilgan qizg‘ish-jigarrang gildan yasalgan buyumlar) muhim ahamiyat kasb etadi.

Shimoliy Baqtriya hududlarida Buddha tasviri tushirilgan yettita kushon davri terrakotalari topilgan va ulardan uchta Eski Termizdan (stratigrafik quduqdan ikkita⁹⁹, Qoratepadagi buddaviylikka oid g‘or monastrdan bitta)¹⁰⁰, ikkitasi Kampirtepadan (bittasi chiqindi chuquridan va yana biri qo‘rg‘onning g‘arbiy qismidagi handaqdan)¹⁰¹; bittasi Ayritomdan¹⁰² topilgan. Ular asosan ikkita ikonografik turga bo‘linadi: abxaya-mudra holatida qo‘lini ko‘targan holda o‘tirgan Buddha va padmasane holatida dxyana-mudra ishorasi bilan tik holda ishlangan Buddha. Ulardan faqat Kampirtepadan topilgan haykalchalar murakkab tarzda ishlangan taxt va unda savlat to‘kib o‘tirgan Buddha tasviri bilan keskin farq qiladi.

Shimoliy Baqtriya hududlarida topilgan haykallar orasida Sh.R. Pidayev tomonidan Eski Termizdagi stratigrafik quduqdan topilgan, milodiy I asrning ikkinchi yarmi va II asrning birinchi yarmiga oid¹⁰³ ikki haykalcha eng qadimgi Buddha haykallaridan biri sanaladi. Undan ham qadimiyroq bo‘lgan Buddha haykali esa milodiy I asrning birinchi choragiga oid, Dxarmaradjika (Gandxara)dagi

⁹⁷ A. Asqarov boshchiligidagi mualliflar jamoasi. O‘zbekiston tarixi. I jild. – T: Ma’naviyat, 2023. 101-bet.

⁹⁸ Rtveladze E.V. Великий индийский путь. Из истории важнейших торговых дорог Евразии. СПб., 2012.

⁹⁹ Pidayev Sh.P. К вопросу о появлении образа Будды в коропластике Бактрии // IMKU. 30-nashr. 1999. 133-134-betlar.

¹⁰⁰ Meshkeris V.A. Терракоты из Кара-тепе // Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. М., 1969. 126-136-betlar.

¹⁰¹ Пьясов J. Терракоты Кампыртепа // МТЕ. 1-nashr. 2000. 102-103-betlar.

¹⁰² Turg‘unov B.A. К изучению Айртама // Из истории античной культуры Узбекистана. Tashkent, 1973. 76-bet, 20-rasm.

¹⁰³ Pidayev Sh.P. К вопросу о появлении образа Будды в коропластике Бактрии // IMKU. 30-nashr. 1999. 103-bet.

suburg‘ondan topilgan. J.Marshaling fikricha, ushbu haykalchalar Buddaning qiyofasi muqaddaslashishidan ancha oldingi, ilk qiyofasini ifodalaydi¹⁰⁴. Ayni vaqtda K.Kumarasvami va Loxvizen de Lyovlar bu borada Buddaning eng qadimgi tasviri Vima Kadfiz hukmronligidan oldin paydo bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Ular o‘z farazlarini Kudjula Kadfiz hukmronligi davridan keyin, odamlar ko‘chib kelib o‘troqlashishi butunlay to‘xtagan Sirkap manzilgohida Buddha tasviri tushirilgan topilma yo‘qligi bilan asoslashadi¹⁰⁵.

Kampirtepadan topilgan Buddha terrakota haykalchalari ham, Eski Termizdan topilgan haykalchalar bilan bir qatorda Kanishka hukmronligidan ancha oldingi davrda yasalgan¹⁰⁶ bo‘lib, nafaqat Baqtriyadagi, balki butun buddaviylik dunyosidagi Buddaning eng qadimiy timsollaridan biri hisoblanadi. Ushbu dalil tarixiy jihatdan Shimoliy Baqtriyaga buddaviylikning kirib kelishi vaqtini aniqlashda juda ham muhimdir.

Buddaviylikning Boxtarga kirib kelishi va tarqalishi Vima Takto davriga to‘g‘ri keladi. Buddaviy inshootlar Boxtarning ko‘p joylarida aniqlangan. Ularning eng asosiylari poytaxt Boxtar va Termiz shaharlarida joylashgan. Boxtar shahridagi Tepayi Rustam suvargasi, Sharqi Falak va Navbahor ibodatxonalari kushoniylar davriga oiddir. Buddaviylik madaniyati bilan bog‘liq qator yodgorliklar Shimoliy Boxtarda, xususan, Surxondaryo viloyatida aniqlangan. Bu borada Termizdagi buddaviylik majmualari alohida o‘rin egallaydi¹⁰⁷. Chunki Termiz shahri Shimoliy Boxtarning ma‘muriy va madaniy markazi hisoblangan.

Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyoning turli xil tarixiy-madaniy manzillarida buddaviylik tarixining boshlanish davri hanuzgacha bahsli bo‘lib qolmoqda. Ayrim tadqiqotchilar uni buyuk Kushon shohi Kanishkaning hukmronlik davri (milodiy II

¹⁰⁴ Marshall J. Taxila. An Illustrated Account of Archayeological Excavations carried out at Taxila under the Orders of the Government of India betweyen the Years 1913 and 1934. Vol. 1 – 3. Cambridge, 1951. 701-bet.

¹⁰⁵ Lohuizen-de Leeuw J., van. The “Scythian” Period: an approach to the history, art, epigraphy and paleography of North India from the 1 st century B.C. to the 3 rd century A.D. Leiden, 1949. 87,99,105-betlar.

¹⁰⁶ Rtveladze E.V. Великий индийский путь. Из истории важнейших торговых дорог Евразии. СПб., 2012. 203-208-betlar.

¹⁰⁷ A. Asqarov boshchiligidagi mualliflar jamoasi. O‘zbekiston tarixi. I jild. – T: Ma’naviyat, 2023. 101-bet.

asrning birinchi yarmi)ga taaalluqli, deb bilsalar, boshqalari undan ham ancha oldinroq paydo bo‘lgan, deya ta’kidlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zeymal. V. Ye. Kushanskaya xronologiya. M, 1968.
2. Rtveladze E. Coins of the Yuechi rulers of Northern Bactria // SRAA 3. 1993/94.
3. Falk H. The yuga Sphujiddhvaja and the era of the Kushanas // SRAA 7. 2001.
4. Azamat Ziyoy. O‘zbek davlatchiligi tarixi. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001.
5. A. Asqarov boshchiligidagi mualliflar jamoasi. O‘zbekiston tarixi. I jild. – T: Ma’naviyat, 2023.
6. Azamat Ziyoy. O‘zbek davlatchiligi tarixi. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001.
7. Rtveladze E.V. Великий индийский путь. Из истории важнейших торговых дорог Евразии. СПб, 2012.
8. Pidayev Sh.P. К вопросу о появлении образа Будды в коропластике Бактрии // IMKU. 30-nashr. 1999.
9. Meshkeris V.A. Терракоты из Кара-тепе // Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. М., 1969.
10. Ilyasov J. Терракоты Кампыртепа // МТЕ . 1-nashr. 2000.
11. Turg‘unov B.A. К изучению Айртама // Из истории античной культуры Узбекистана. Tashkent, 1973.
12. S.Beknazarov, H. Doniyorova. Turkiy xalqlar va Kushon davlatining qadimgi davlatchilik rivojida tutgan o‘rni “Qashqadaryo vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi ravnaqiga qo‘shgan hissasi”. - Qarshi, 2025. 618 bet.
13. Beknazarov S, Qayumova M., “Kushon davlatida taxt vorisligi tartibi va Kushon podsholigi solnomasi”. “Qashqadaryo vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi ravnaqiga qo‘shgan hissasi”. - Qarshi, 2025. 618 bet.